

**“ IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN DAM OLISH
OROMGOHI INTERYERINI LOYIHALASH TAMOYILLARI
VA FAZOVIY YECHIMLARI “**

Xodjayeov Abbas Agzamovich ¹

¹ *t.f.d., professor, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti*

Mamaniyozova Firuza Abror qizi ¹

¹ *magistrant,*

Milliy rassomlik va dizayn instituti

ARTICLE INFO

ABSTRACT:

ARTICLE HISTORY:

Received: 24.11.2025

Revised: 25.12.2025

Accepted: 26.03.2025

KEYWORDS:

nogiron bolalar,
oromgoh arxitekturasi,
inklyuziv dizayn,
reabilitatsiya, ekologik
terapiya, interyer
dizayn, xavfsiz va
inklyuziv muhit.

Maqolada nogironligi bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan dam olish oromgohlari interyerini loyihalashning asosiy tamoyillari ko‘rib chiqiladi. Makonning ergonomik, psixologik va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilinadi, ular bolalar uchun qulay, xavfsiz va inklyuziv muhit yaratishga qaratilgan. Xususan, adaptiv yechimlar, sensor zonalar va universal dizayn tamoyillaridan foydalanishga alohida e‘tibor qaratiladi.

KIRISH. Ma’lumki davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan imkoniyati cheklangan va nogiron bolalarga bo‘lgan e’tibor ustuvor vazifa sifatida doim diqqat markazida turgan masaladir. Bu borada “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (2020-yil 15-oktyabrdagi O‘RQ-641-son), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-fevraldagi PQ-41-son qarori va boshqa bir qator qarorlar nogironligi bo‘lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish, ular uchun munosib sharoitlar yaratish, inklyuziv mexanizmlar samaradorligini oshirish bo‘yicha yirik masalalarini hal qilish uchun huquqiy zaminni tashkil qiladi.

Sir emaski nogironligi bo'lgan bolalar jismoniy va psixologik qulaylikni ta'minlovchi maxsus muhitga muhtojdir. Bunday bolalar uchun mo'ljallangan dam olish pansionatlari ularning ehtiyojlarini hisobga olib, har taraflama qulaylik yaratishi lozim. Bunda erkin harakatlanish, maxsus jihozlardan foydalanish va sensor muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Interyerni loyihalash tamoyillari

Ushbu tadqiqotning maqsadi — imkoniyati cheklangan bolalar uchun mo'ljallangan oromgoh (pansionat)larning interyeriga qo'yiladigan asosiy talablarni aniqlash va inklyuziv hamda qulay muhit yaratish uchun taklif etiladigan yechimlarni taqdim etish. Bu borada ushbu yo'nalishdagi izlanuvchi va tadqiqot markazlarining tajribalari asosida quyidagi asosiy tamoyillarni ajratish mumkin.

1. Universal dizayn.

Universal dizayn har qanday jismoniy holatdagi insonlar uchun qulay bo'lgan muhitni shakllantirishni nazarda tutadi. Asosiy tamoyillar:

- To'siqsiz muhit: bosqichlarsiz kirish joylari, keng eshiklar, panjarali panduslar;
- Ergonomik mebel: balandligi moslashtiriladigan stollar va stullar, qulay yumshoq o'rindiqlar;
- Kontrast va ravshan navigatsiya: taktil ko'rsatkichlar, yorqin yo'naltiruvchi belgilar, katta piktogrammalar.

2. Xavfsizlik va qulaylik.

Nogironligi bo'lgan bolalar tashqi ta'sirlarga nisbatan sezgirroq bo'lgani uchun quyidagilarni inobatga olish kerak:

- Ekologik va gipoallergen materiallardan foydalanish;
- Yumshoq qoplamalar va mebellarning yumaloq burchakli bo'lishi;
- Xavfsiz yoritish tizimi (tezkor soyalar va akslarsiz, yorug'lik darajasini nazorat qilish imkoniyati bilan).

3. Oromgoh makonini zonaga ajratilishi.

a) Yotoqxonalar:

- Yakka va guruhlik xonalar, moslashtirilgan karavotlar;
- Shaxsiy buyumlarni saqlash uchun qulay joylar;
- Tabiiy va sun'iy yoritishning optimal darajada bo'lishi.

b) Umumiy dam olish zonalari:

- Sensor xonalar: interaktiv panellar, yorug'lik effekti, yumshoq kreslolar;

- O‘yin maydonchalari: harakatlanish cheklangan bolalar uchun moslashtirilgan, xavfsiz pol qoplamalari;

- Relaksatsiya xonalari: yumshoq mebellar, tabiat ovozlari bilan audio tizimlar, aromaterapiya.

v) Ovqatlanish zali:

- Nogironlar aravachasidagi bolalar uchun mos keluvchi turli balandlikdagi stollar;
- Sirpanishga qarshi pol qoplamalari;
- Mustaqil ovqatlanishni yengillashtiruvchi maxsus uskunalar.

4. Texnologik yechimlar.

Bolalarga qulayliklar yaratish, dam olish muhitida ular o‘zini dadil va erkin his qilishi maqsadida oromgoh makonining har bir zonasi maxsus texnologik moslamalar bilan jihozlangan bo‘lishi lozim. Bunda quyidagilar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq:

- Sensorli avtomatik eshiklar;
- Hodimlar bilan aloqa uchun interaktiv panellar;
- “Aqlli” yoritish va iqlim nazorati tizimlari.

Oromgohda imkoniyati cheklangan va nogiron bolalarning rehabilitatsiyasi asoslari

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun mo‘ljallangan oromgohlarda sog‘lomlashtirish jarayoni ko‘proq dori vositalari bilan emas ko‘proq ekologik, psixologik, jismoniy-fiziologik usullar yordamida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda tabiiy atrof muhit, tabiat qo‘yni afzalliklaridan to‘liq foydalanish maqsadga muvofiq. Bu borada oromgoh makonida quyidagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun sharoitlar yaratilishi lozim:

1. **Ekoterapiya** (tabiat bilan bog‘liq mashg‘ulotlar): oromgoh hududida joylashgan bog‘lar, o‘rmonlar va suv havzalari yordamida bolalar uchun sayrlar, ekologik o‘yinlar va tabiatni o‘rganish darslarini tashkil etish;

2. **Art- terapiya** (san‘at orqali davolash): bolalar uchun rasm chizish, loydan buyumlar yasash, mozaika yaratish kabi san‘at mashg‘ulotlarini tashkil etish. Bunday faoliyat bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, ruhiy holatini yaxshilashga xizmat qiladi;

3. **Jismoniy terapiya va sport mashg‘ulotlari**: oromgohlarda nogiron bolalar uchun maxsus moslashtirilgan sport maydonchalari va suzish havzalarini tashkil qilish. Jismoniy faollik ularning mushaklarini mustahkamlash, muvozanatni yaxshilash va umumiy salomatlikni tiklashga yordam beradi;

4. **Sensor terapiya**: bolalarning sezgi organlarini rag‘batlantirish uchun maxsus sensorli bog‘lar va multisensorli xonalar tashkil qilish. Bu joylarda turli fakturalar, hidlar va tovushlar orqali bolalarning hissiy qabul qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi;

5. **Hayvonlar yordamida terapiya:** oromgohlarda hayvonlar bilan muloqot qilish uchun maxsus hududlarni tashkil etilib, bolalarga otlar, quyonlar yoki qushlar bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratish. Bunday mashgʻulotlar bolalar stress holatlarini kamaytirib, hissiy holatini yaxshilaydi.

Xulosa

Nogironligi boʻlgan bolalar uchun moʻljallangan oromgoh interyerini loyihalash universal dizayn, ergonomika va inklyuziv muhit yaratish tamoyillarini oʻz ichiga olishi kerak. Qulay va xavfsiz muhit shakllantirish nafaqat dam olish, balki bolalarni reabilitatsiya qilish, ijtimoiylashtirish va rivojlantirishga ham xizmat qiladigan boʻlishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Sogʻliqni saqlash vazirligi rasmiy manbalari.
2. “ Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlari toʻgʻrisida “ Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni (2020 – yil 15 – oktyabrdagi OʻRQ – 641 – son).